

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA KASRLARNI O'RGGATISH METODLARI.

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani 45-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mastura Axmatovna Turobova

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda kasrlar mavzusini o'rgatishda yordam beradigan bir nechta interfaol va interaktiv metodlar, lasrlarni yozish qoidalari va ushbu qoidalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishda bajariladigan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, matematika, kasrlar, metodikika, mantiqiy fikrlash, interfaol ta'lim metodlari.

Аннотация: В этой статье представлена информация о нескольких интерактивных и интерактивных методах, помогающих преподавать тему дробей в начальных классах, правилах написания дробей, а также о работе, которую необходимо выполнить при обучении этим правилам учащихся начальной школы.

Ключевые слова: начальная школа, математика, дроби, методика, логическое мышление, интерактивные методы обучения.

Abstract: This article provides information on several interactive and interactive methods to help teach the topic of fractions in elementary grades, rules for writing fractions, and the work to be done in teaching these rules to elementary school students.

Key words: elementary school, mathematics, fractions, methodology, logical thinking, interactive educational methods.

INTRODUCTION .

Boshlang'ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. 6-10 yoshili bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas'ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang'ich ta'lim

metodikasining, xususan, matematikadan boshlang'ich ta'lif metodikasining vazifalaridan biri o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlashda o'qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta'sirlarini jadallashtirishdan iborat. Matematikadan boshlang'ich ta'lif-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng samarali usullarni qo'llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur. Boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun O'quvchilarning aqliy faoliyatlarini darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir. Nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda, ular bir qiyimatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

MATERIALS AND METHODS.

O'quvchilarni kasrlar bilan tanishtirish dasturiga binoan 3-sinfdan boshlanadi. Kasrlarning hosil bo'lishi, ularni taqqoslash, nonning ulushini topish va berilgan ulushga ko'ra sonning o'zini topish bilan tanishadilar. 4-sinfda 1 ning ulushi va bir necha ulushi va uning yozma ko'rinishi tasavvurlariga ega bo'ladilar. Kasr tushunchasi geometriyada kesma ulushi, miqdorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog'langan. Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo'laklarga bo'lish, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi. Boshlang'ich sinfdan oldin, ya'ni mifik tabacha yoshdayoq kasr tushunchasining boshlang'ich tushunchalari berilgan. Masalan, olma, tarvuz, bodring, non va boshqalarni bir necha bo'laklarga bo'lib ko'rgan va boshlang'ich tushunchalar berilgan. Shu maqsadda bolalarni ulushlar bilan, ularning yozilishi bilan tanishtirish, taqqoslashni o'rgatish, nonning ulushlari va

ulushi bo'yicha sonni topishga doir masalalarini yechish kuzda tutiladi. Aytib o'tilgan barcha masalalar ko'razmali qilib olib beriladi.

Miqdorlarning ulushlari bilan tanishtirish metodikasi.

RESULTS AND DISCUSSIONS:

Yuqorida ko'rdikki, 3-sinfda birning ulushlari, ya'ni $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ va hokazo ulushlarga oid tasavvurlarni hosil qilishdan iborat. Kasrlarni o'rgatish deyarli ko'rgazma asosida tushuntiriladi. Bu ko'rgazmalarga meva, qovun, tarvuz, geometrik shakl, cho'p, qog'oz va boshqa atrofdagi narsalarni olish mumkin. Ko'rgazmali tushuntirishda, masalan, olmani teng ikkiga bo'lish, yordamida kasr hosil qilinadi. SHunga mos olmani teng bo'lmanan 2 bo'lakka bo'lib, u yarim olma emasligini, demak, kasrni hosil qilmaslikni tushuntirish kerak. Faqat teng bo'lakka bo'lgandagina kasr son yoki butunning ulushi hosil bo'lishini mustahkam singdirish lozim. Turli xil geometrik shakllar bilan ishlayotganda bu shakl yordamida ulushlarni hosil qiladilar, hamda uning ba'zi xossalarni keltirib chiqaradilar. Masalan, kvadratni teng 4 bo'lakka bo'lishda, uni ikkita yo'l bilan bo'lib, burchaklarining o'zaro tengligiga, hamda tomonlarining ham o'zaro tengligiga asoslanib, shuningdek kvadrat simmetriyasi haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, boshqa o'quvchilarga doirani, ba'zilariga to'g'ri to'rtburchakni 4 bo'lakka bo'lish topshiriladi. Bundan keyingi ish teng bo'laklarga bo'lingan ulushlardan bittasini, ikkitasini, uchtasini olib ularni qanday sonlar bilan yozish mumkinligi o'qitiladi. Kasrlarni ikkidan bir, uchdan bir, to'rtdan bir kabi o'qish va $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ larga narsalarni qanday bo'lib, qancha qismi olinayotanligi orasidagi bog'lanishni hosil qilish lozim. SHu asosda surat va maxraj hamda kasr kabi yangi terminlar kiritmasdan o'qiladi. Lekin chiziq chizish, chiziqning pastida butunni nechaga bo'lgan son, yuqorisiga necha ulushni olgan son yozilishi tushuntiriladi. "Ulushlar" mavzusida figuralarni teng bo'laklarga bo'lish asosida ulushlarni taqqoslash ham tushuntiriladi. Masalan, o'qituvchi 5 ta bir xil to'g'ri to'rtburchakli qog'ozdan yo'lakchali qilib qirqishni taklif qiladi. Bu yo'lakchaning birinchisini teng ikkiga, ikkinchisini teng to'rtga, bo'lib, ularni ustma-ust qo'yish asosida har bir teng bo'laklarni taqqoslaydi. Unda $\frac{1}{2} > \frac{1}{4}$, $\frac{1}{4} > \frac{1}{8}$, $\frac{1}{3} > \frac{1}{6}$ kabi ekanligiga ishonch hosil qiladilar. 3-sinfda sonning ulushini topishni amaliy masalalardan boshlash kerak. Masalan,

uzunligi 12 sm bo‘lgan qog‘oz yo‘lakchani olib uni ikkiga buklash topshiriladi. Yo‘o‘lakchaning yarmi necha sm? $12/2=6$ sm. Endi yo‘lakchani yana ikki buklab to‘rt qismga bo‘ladi. Yo‘lakchaning qanday qismi hosil bo‘ldi va uning uzunligi qancha? Javob: $12:4=3$ sm. $1/4$ qism. Bu ish chizg‘ich yordamida ham o‘lchab ko‘riladi.

Kasrlarni yozishni bajarishda quyidagi qoidaga amal qilish zarur. Chiziq ostida yozilgan son kasrning mahraji deyilib, butun narsa nechaga teng bo‘lishini ifodalaydi. Kasrning ustiga yozilgan son kasrning surati deyilib teng qismlardan qanchasi olinganini boshlang‘ich sinflida mahraji 10dan katta bo‘lmagan kasrlar qaraladi. Bundan keyin kasrlarni maydarоq ulushlarga maydalash va yiriklashga doir masalalar qaraladi. $3/4=6/8$ yoki $2/8=1/4$ larni tushuntirish uchun bir xilda yo‘lakcha olamiz va birinchisini 4ta teng bo‘lakka ikkinchisini 8ta teng bo‘lakka bo‘lib birinchisidan 3ta ulushni, ikkinchisidan 6ta ulushni olamiz. Bu ikkala yo‘lakchadagi yuzalar tengligi ko‘rinarli bo‘ladi. Shuningdek, $2/8=1/4$ larni tushuntiriladi. Sonning kasrini topishga doir masalalarni yechishda 3-sinfda o‘rganilgan sonning ulushini topish masalasi asos bo‘lib xizmat qiladi. Masala. Uzunligi 10 sm bo‘lgan kesma chizilgan, $3/5$ qismi necha smga teng? Uzunligi 10 sm bo‘lgan kesma chizadi va uning $1/5$ ulushi necha sm ekanligini 3-sinfdan biladi. $10:5=2$ sm so‘ng kesmaning $3/5$ qismini topishda $2*3=6$ sm ishni bajaradi, yoki birdaniga $10:5*3=6$ sm deb bajarish ham mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda kasrlarni o‘rgatish qiziqarli va qiyin bo‘lishi mumkin. Yosh o‘quvchilar uchun kasrlarni o‘rganishga yordam beradigan bir nechta usullar:

1. Ko‘rgazmali qurollardan foydalaning: aylana, kvadrat yoki boshqa shakllar kabi ko‘rgazmali tasvirlar o‘quvchilarga kasr tushunchasini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, turli kasrlarni ko‘rsatish uchun aylananing yarmi, chorak yoki uchdan biriga bo‘linishi mumkin.

2. Amaliy mashg‘ulotlar: o‘quvchilarga sanoq va maxraj tushunchalarini tushunishga yordam berish uchun kasr chiziqlari, bloklar yoki hatto pitsa bo‘laklari kabi kundalik narsalar kabi manipulyatorlardan foydalanishga undash.

3. Hayotiy misollar: O‘quvchilarga kasrlar kundalik hayotda, masalan, pitsa bo‘lish yoki gazak bo‘lishda qanday qo‘llanilishini ko‘rsating. Bu ularga kasrlarni o‘rganishning amaliy qo‘llanilishini ko‘rishga yordam beradi.

4. O'yinlar va mashg'ulotlar: O'rganish fraksiyalarini qiziqarli qilish uchun darslaringizga o'yinlar va interfaol tadbirlarni qo'shing. Kasr bingo, kasr xotirasi yoki kasr urushi kabi o'yinlar o'quvchilar uchun o'rganishni qiziqarli qilishi mumkin.

5. Texnologiyadan foydalaning: o'quvchilarga kasrlar bilan ishlashni tasavvur qilish va mashq qilishda yordam beradigan ko'plab onlayn manbalar va ilovalar mavjud. Interfaol vositalar tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi va o'rganishni yanada interaktiv qiladi.

6.Oddiylikdan murakkablik sari: oddiy kasrlardan boshlang va asta-sekin murakkabroq tushunchalarga o'ting. Uchdan va boshqa kasrlarga o'tishdan oldin yarim va choraklardan boshlang.

Ushbu strategiyalarni darslaringizga kiritish orqali siz kasrlar haqida o'rganishni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qulayroq va qiziqarli qilishingiz mumkin.

CONCLUSIONS:

Xulosa qilib aytganda kasr tushunchasi 3-sinfdan kirib keladi. Biz yosh avlodga zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda turli hil interfaol metodlardan foydalanib dars jarayonini olib boramiz. Interfaol metod orqali o'quvchilarni, hamjihatlikka, birga guruh bolib ishlashga o'rgatamiz.O'quvchilarni kasr bilan tanishtirish dasturga 3-sinfdan boshlanadi.Kasrlarning hosil bo'lishi ularni taqqoslash, sonning ulushini topish va berilgan ulushiga ko'ra sonning o'zini topish bilan tanishadilar.Interfaol metodlar orqali o'quvchilarni darsga bo'lган qiziqishlari ortib boradi. Darsning yutuqlaridan biri o'quvchilar diqqatini jalb qila bilish, bunda o'quvchilarga turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish lozim bo'ladi.

REFERENCES:

- 1.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2010.
- 2.Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: «Fan».2016
- 3.A.A.Ibragimov. Matematik matnlarni tayyorlash texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma.Navoiy: NavDPI nashriyoti, 2013.
- 4 Jumayev M.E. Matematika oqitish metodikasidan praktikum -Toshkent.: O'qituvchi, 2014.
- 5.www.ziyonet.uz.